



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 16-iyul

335-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024 yil 15 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 5-iyundagi PQ–213-son qarori ijrosi haqida”gi 308-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 5-iyundagi PQ–213-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024 yil 15 iyuldagi 308-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini tumanda ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024 yil 15 iyuldagi 308-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda bajarish uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-iyundagi PQ–213-son qarori bilan:

Quyidagilar:

Iqlim o‘zgarishi bo‘yicha Parij bitimining (keyingi o‘rinlarda — Parij bitimi) 13-moddasida issiqxona gazlari ajratmalarini qisqartirish va iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda mamlakatlar tomonidan iqlim o‘zgarishi ta‘sirini yumshatish va unga moslashish choralari ko‘rilishi hisobidan erishilgan natijalarni doimiy ravishda baholab borish maqsadida takomillashtirilgan shaffoflik tizimini yo‘lga qo‘yish nazarda tutilganligi;

Parij bitimiga muvofiq, shaffoflik tizimi orqali issiqxona gazlari ajratmalari monitoringi natijalari va hisobotlarni, shuningdek, iqlim o‘zgarishiga moslashish jarayonlariga oid ma‘lumotlarni jamoatchilik e‘tiboriga yetkazib borish talab etilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar

samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarorida milliy miqyosda issiqxona gazlari ajratmalarining monitoringi, hisoboti va tekshiruvi bo‘yicha shaffoflik tizimini (keyingi o‘rinlarda — MRV tizimi) yaratish va rivojlantirish belgilanganligi;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi (keyingi o‘rinlarda — Ekologiya vazirligi) hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ilg‘or xalqaro standartlar va xorijiy tajriba asosida O‘zbekiston Respublikasida “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimini joriy etish konsepsiyasi ishlab chiqilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinganligi;

shunday tartib o‘rnatilganki, unga muvofiq mamlakatimizda “yashil” iqtisodiyotga o‘tishda milliy shaffoflik tizimi (keyingi o‘rinlarda — milliy shaffoflik tizimi) doirasida:

a) Iqtisodiyot va moliya vazirligi milliy shaffoflik tizimining milliy organi hisoblanishi va u quyidagi vazifalarni amalga oshirishi:

Ekologiya vazirligi bilan birgalikda Energetika vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi (keyingi o'rinlarda — tarmoq muvofiqlashtiruvchilari) ishini samarali yo'lga qo'yish hamda ularning faoliyatini muvofiqlashtirishi;

2025-yildan boshlab har 5 yilda Parij bitimi doirasida iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirni baholash asosida iqlim o'zgarishi oqibatlarini kamaytirish bo'yicha milliy majburiyatni belgilashi;

MRV tizimi talablariga muvofiq taqdim etilgan ma'lumotlarning to'liqligi, to'g'riligi va sifatini nazorat qilishi;

iqtisodiyot, shu jumladan sanoat tarmoqlarida issiqxona gazlari ajratmalari qisqartirilishini muvofiqlashtirishi va tartibga solishi;

MRV tizimini ishlab chiqish, joriy etish va yuritish, shu jumladan barcha MRV tizimi hisobot elementlarini qo'llab-quvvatlash uchun onlayn platforma ishlab chiqish va joriy etishi;

issiqxona gazlari ajratmalari qisqartirilishining milliy reestrini joriy etish, qisqartirilgan issiqxona gazlarining milliy va xalqaro darajadagi savdosini muvofiqlashtirish, bunda birinchi navbatda milliy manfaatlarni inobatga olgan holda, xalqaro majburiyatlar bajarilishini ta'minlashi;

b) Ekologiya vazirligi quyidagi vazifalarni amalga oshirishi:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konvensiyasi doirasida Issiqxona

gazlari xatlovi milliy hisobotini tayyorlash, tasdiqlangan hisobotni Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi milliy axborot hamda ikki yillik shaffoflik hisobotlariga integratsiya qilish;

Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishilgan holda, milliy ehtiyojlar, imkoniyatlar va tartiblarga muvofiq rasmiy hisobotlarni tayyorlash hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi to'g'risidagi hadli konvensiyasi kotibiyatiga taqdim etib borish;

muhofaza etiladigan tabiiy hududlarni boshqarish, muhofaza etish, o'rmon fondini kengaytirish, daraxtzorlarni barpo etish va qayta tiklash omillariga ko'ra issiqxona gazlari yutilishiga oid ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash;

v) tarmoq muvofiqlashtiruvchilari Ekologiya vazirligi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda boshqa vazirliklar, idoralar hamda tashkilotlar bilan birgalikda quyidagi vazifalarni amalga oshirishi:

tarmoq bo'yicha issiqxona gazlari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash, ularning shaffofligini ta'minlash va boshqa ma'lumotlar bilan integratsiya qilish hamda xatlov hisobotini tayyorlashda ishtirok etish;

tarmoqda issiqxona gazlari ajratmalarini xatlovdan o'tkazish va uning natijasida to'plangan hamda qayta ishlangan ma'lumotlarni milliy organga taqdim etib borish hamda ularning "Yashil iqtisodiyot" onlayn platformasiga davriy yuklab borilishini ta'minlash;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish choralari muvofiqlashtirish bo'yicha Idoralararo kengash tarkibining matni ilovaga muvofiq tahrirda bayon etilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. Ushbu qaror ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari va tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo'jalik, ekologiya va ko'kalamzorlashtirish masalalari bo'yicha o'rinbosari H.Boylarov belgilansin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Tuman hokimi



N.Xudoyberdiyev